



# Mavzu: Leksikologiya

O'qituvchi: Ruzikulova G. F.



TIIAME

O'zbek tili Markaziy Osiyo qadimiylarining mahalliy xalqlarining turkiy tillar tizimidagi tillaridan biri sifatida uning lug'aviy tarkibi, grammatik qurilishi ham uzoq tarixga ega.

Hozirgi o'zbek tili leksikasi o'zining butun taraqqiyoti jarayonida shu tilning ichki rivojlanish qonuni asosida boyib borgan, bu tilning so'z boyligi, leksik-semantik tizimi sifatida shakllangan yaxlit bir hodisadir.

Hozirda umum iste'molda bo'lgan barcha so'zlar, grammatik vositalar o'zbek tilining o'zinikidir. Lekin bu leksik boylik birdan vujudga kelmagan. Birinchidan, o'zbek tili leksikasi turkiy xalqlar uchun umumiylar bo'lgan so'z boyliklari asosida rivojlangan bo'lsa, ikkinchidan, boshqa xalqlar tillaridan so'z o'zlashtirish sababli boyigan.



# O`zbek tili leksikasining boyish manbalari




TILAME

O`zbek tilining leksikasi fan-texnika,  
san’at, ishlab chiqarishning  
taraqqiyoti bilan bog`liq holda boyib  
boradi.



TILAME





TILAME

**So`zni aynan olish yo`li bilan **tojik**,  
**arab** tillaridan, shuningdek, **rus**  
tillaridan, rus tili orqali boshqa  
**Yevropa** tillaridan ko`proq  
o`zlashtirilgan. Masalan, sinch,  
devor, yana, rubob, kitob, maktab,  
daraxt, mutolaa, muomala, traktor,  
sport kabi.**

**Tilning lug`at tarkibi  
2 manba asosida boyiydi.**

**1. O`zbek  
tilining ichki  
imkoniyatlari  
asosida (ichki  
manba)**



**2. Boshqa  
tillardan so`z  
olish (tashqa  
manba).**



## 1. O`zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida (ichki manba).

Bunda so`z yasash orqali yangi so`zlar hosil qilinadi: sinfdosh, limonzor, vazirlik, ijarachi, tinchliksevar, MDH, BMT kabi. Ichki imkoniyatga shevalardan adabiy tilga so`z olish ham kiradi: aya, bolish, uvildiriq (ikra) kabi.



## ***2. Boshqa tillardan so`z olish (tashqa manba).***



TIIAME


O`zbek tiliga boshqa tillardan so`z o`zlashtirish turli davrlarda turlicha bo`lgan. Eng qadimda fors-tojik tillaridan, keyinroq arab tilidan, undan ham keyinroq rus tilidan va rus tili orqali Yevropa tillaridan so`z o`zlashtirish faollashgan.

O`zlashgan so`zlar ham o`zbek tili leksikasida anchagina miqdorni tashkil etadi. Keyingi yillarda tilning leksik tarkibini so`z yasashdan ko`ra boshqa tillardan so`z o`zlashtirish hisobiga boyishi yetakchilik qilmoqda.

Boshqa tillardan so`zlar ikki usul bilan o`zlashtiriladi:

1)so`zni aynan  
olish yo`li bilan;

2) kalkalab olish  
yo`li bilan.





## KALKALAB O'ZLASHTIRISH



TILAME

Kalkalab o`zlashtirishda so`z aynan olinmaydi, balki so`zning ma'nosi o`zlashtiriladi. Ikkinchi tildagi so`zning ma'nosi shu so`zning morfemik tarkibidan qismma qism nusxa ko`chirish orqali ifoda etiladi.



TILAME

Yarim kalkada ba'zan  
o`zlashtirilayotgan  
so`zning bir qism tashlanib,  
qolgan qismi aynan olinadi:  
aktualniy – aktual kabi.

## Kalkalab o`zlashtirishning 2 xil yo`li bor:

1. To`liq kalka.  
Bu usulda  
o`zlashtirilayotgan  
so`zning barcha qismlari  
o`z til materialidan  
tuziladi. Masalan:  
polugramatniy –  
challasavod, vsesoyuzniy  
- butunittifoq.



2. Yarim kalka. Bu  
usulda  
o`zlashtirilayotgan  
so`zning bir qismi  
aynan saqlanib, bir  
qismi o`z til orqali  
beriladi. Traktorist –  
traktorchi, tabelshik –  
tabelchi kabi.



O`zga til so`zidagi ma`no o`z  
tildagi so`z bilan berilsa,  
**bu semantik kalka deb ham**  
yuritiladi.



**E'TIBORINGIZ  
UCHUN RAHMAT!**